HADISLARDA NUTQ MADANIYATI
КУЛЬТУРА РЕЧИ В ХАДИСАХ
THE ETIQUETTE OF SPEECH IN HADITHS

Quldashev Nizomiddin Axmadaliyevich
Farg‘ona davlat universiteti filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Vahobova Oyshaxon Abdulatif qizi
Farg‘ona davlat universiteti talabasi

Annotatsiya
Ushbu ilmiy maqolada hadislarda nutq madaniyatining muhim tamoyillari, nutqni shakllantirishdagi roli hamda lingvistik jihatlari o‘rganiladi. Tadqiqot davomida hadislardagi nutq odoblari, lingvistik qatlamlar va funksional xususiyatlar ko‘rib chiqilib, tahliliy yondashuv asosida hadislarda keltirilgan nutqning axloqiy-me’yoriy tizimi ilmiy manbalar bilan taqqoslangan holda tahlil qilinadi. Maqolada hadislarda nutq madaniyatining ahamiyati va lingvistik xususiyatlari mutaxassislarning ilmiy qarashlari asosida keltirib o‘tilgan.
Kalit so‘zlar: *hadis, islom, diskursiv, nutq, matn, semantik, pragmatik, lingvistik, axloq.*

KIRISH

“Hadis” (arabcha: ḥadīth – **حديث**) so‘ziarabtilidagi “ḥ-d-th” ildizidan kelib chiqqan bo‘lib, “so‘z”, “gap”, “xabar”, “rivoyat”, “yangilik” kabi ma’nolarni anglatadi. Encyclopaedia Britannica ma’lumotlariga ko‘ra, hadis lug‘aviy jihatdan og‘zaki ravishda yetkazilgan xabar yoki nutqni bildiradi. Shu jihatdan hadis kommunikativ vazifani bajaruvchi nutqiy birlik sifatida qaraladi.[19] Istilohiy ma’noda esa hadis Payg‘ambar Muhammad (s.a.v.)ning so‘zlari, amallari, ma’qullagan ishlari va axloqiy sifatlari haqidagi rivoyatlar majmuasidir. Hadislar Qur’ondan keying ikkinchi asosiy manba hisoblanib, islomiy axloq, huquq va ijtimoiy me’yorlarni shakllantirishda muhim o‘rin tutadi.[20]

ASOSIY QISM VA TAHLIL

Hadislar tilshunoslikda ham muhim tadqiqot obyekti sanaladi. Ular diskursiv matnlar sifatida o‘rganiladi, chunki ular ma’lum kommunikativ vaziyatda aytilgan, aniq auditoriyaga qaratilgan va muayyan maqsadni ko‘zlagan nutqiy birliklardir. Zamonaviy lingvistik tadqiqotlarda hadislarni leksik, semantic va pragmatic jihatdan tahlil qilish muhim ilmiy yo‘nalishlardan biri hisoblanadi.[21]

Hadislarning lingvistik tabiatida semantic aniqlik, qisqalik va ta’sirchanlik alohida o‘rin egallaydi. Hadis matnlarida qo‘llanilgan so‘zlar soda va ravshan bo‘lib, fikrning aniq yetkazilishiga xizmat qiladi. Shu bilan birga, hadislar kuchli pragmatic xususiyatga ega bo‘lib, inson xulq-atvoriga ta’sir qilish, axloqiy me’yorlarni shakllantirish va muloqot madaniyatini rivojlantirishni maqsad qiladi.

[19] Hadith | Definition, Meaning, & Examples | Britannica https://share.google/QJHaKWs9ieAcNLOze
[20] Hadis – Ensiklopedia Islam https://ensiklopediaislam.id/hadis
[21] https://jurnalfuda.iainkediri.ac.id/index.php/universum/article/view/285/623

Oisha roziyallohu anhodan rivoyat qilingan hadishda Rasulullоh sollallohu alayhi vasallam: “Alloh fahsh va so‘kishni xush ko‘rmaydi”, deb marhamat qilganlar.[22] Ushbu hadis lingvistik nuqtai nazardan tahlil qilinganda, undagi “fahsh” va “so‘kish” birliklari nutq madaniyatida qo‘llaniladigan vulgarizmlarga yaqin leksik qatlamni ifodalaydi. Vulgarizmlar odatda qo‘pol, beodob va ijtimoiy-axloqiy me’yorlarga zid bo‘lgan nutq birliklari sifatida talqin qilinadi[23]. Hadis matnida ushbu birliklarning qo‘llanishi bevosita salbiy nutq turlarini ifodalash bilan birga, ularning inkor etilishi orqali normative nutq modelini shakllantiradi. Ya’ni, bu yerda vulgarizm to‘g‘ridan-to‘g‘ri targ‘ib etilmaydi, aksincha, uning zararli ekanligi ko‘rsatilib, undan tiyilish zarurligi ta’kidlanadi. Pragmatik jihatdan ushbu hadis tinglovchini nutqiy xulq-atvorni nazorat qilishga, ijtimoiy muloqotda axloqiy me’yorlarga rioya etishga yo‘naltiradi. Semantik jihatdan esa “fahsh” va “so‘kish” birliklari keng ma’noli salbiy axloqiy kategoriyalarni ifodalab, nutqning nojoiz shakllarini chegaralaydi. Shu tariqa, ushbu hadisda vulgarizm elementlari lingvistik material sifatida inkor kontekstida qo‘llanilib, nutq madaniyatining axloqiy-pragmatik me’yorlarini belgilashga xizmat qiladi.

Hadislarda nutq madaniyatining asosiy tamoyillari sifatida rostgo‘ylik, muloyimlik, foydali so‘zlash va zararli gaplardan tiyilish targ‘ib etiladi. Masalan, Abu Hurayra roziyallohu anhudan rivoyat qilinadi. Rosulullоh sollallohu alayhi vasallam: “Kim Allohga va oxirat kuniga iymon keltirgan bo‘lsa, yaxshi gapirsin yoki sukut qilsin”[24] hadisi nutqning mas’uliyat bilan qo‘llanishi zarurligini ko‘rsatadi. Ushbu hadis lingvistik jihatdan qisqa shaklda katta ma’no ifodalashi bilan xarakterlanadi. Unda “gapirish” va “sukut” tushunchalari qarama-qarshi qo‘yilib, inson nutqining axloqiy mezoni belgilab beriladi. Yana bir hadisda: “Yaxshi so‘z sadaqadir”[25], deyiladi. Bu yerda “yaxshi so‘z” metaforik tarzda “sadaqa”ga qiyoslangan bo‘lib, nutqning insonlar o‘rtasidagi ijtimoiy va axloqiy ahamiyatini kuchaytiradi. Tilshunoslik nuqtai nazaridan ushbu hadis ekspressivlik va semantic kengayish hodisasining yorqin namunasi hisoblanadi.

Imom Muslim tomonidan Abdulloh ibn Mas’ud roziyallohu anhudan rivoyat qilingan hadisda: “Bir qavmga ularning aqli yetmaydigan gapni gapirsang, ba’zilariga fitna bo‘lib qoladi”, deyiladi. Shuningdek, Hazrati Ali roziyallohu anhu: “Odamlarga ular tushunadigan gapni gapiringlar”, deganlar.[26] Ushbu hadislar lingvistik nuqtai nazardan nutqning auditoriyaga moslashuvi (addresatga yo‘naltirilgan nutq) tamoyilini ifodalaydi. Tilshunoslikda bu hodisa pragmatic moslashuv yoki kommunikativ adekvatlik deb yuritiladi. Pragmatik jihatdan nutqning samaradorligi faqat uning Grammatik to‘g‘riligiga emas, balki uning tinglovchi tomonidan qabul qilinishi va tushunilish darajasiga ham bog‘liqdir[27]. Hadis mazmunida gapiruvchi shaxsning nutqiy mas’uliyati ta’kidlanib, ma’lumotni tinglovchining intellectual va ijtimoiy darajasiga mos holda yetkazish zarurligi ko‘rsatib beriladi. Diskursiv jihatdan ushbu hadislar

[22]Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf. Ijtimoi yodoblar. – Tosjkent: “Hilol – Nashr”, 2025. – S.39
[23]H.Jamolxonov. Hozirgi o‘zbek adabiy tili.Darslik. – Toshkent: “Talqin”, 2005. – S.203
[24]Barcha odoblarni o‘z ichiga olgan hadis https://share.google/YeviqwU6GBcM97Z4F
[25]O‘zbekiston musulmonlari idorasi https://share.google/Q5414kV7x7ZbqiEg7
[26]Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf. Ijtimoiy odoblar. – Tosjkent: “Hilol – Nashr”, 2025. – S.52
[27]Safarov Sh. Pragmalingvistika. Monografiya. – Toshkent, 2008. – S.40

muloqot vaziyatiga bog‘liq nutq qurilishini ifodalaydi. Ya’ni nutq mazmuni doimiy va umumiy emas, balki kommunikativ kontekstga qarab o‘zgaruvchi hodisa sifatida qaraladi. Sotsiolingvistik nuqtai nazardan esa bu birliklar jamiyatdagi turli ijtimoiy guruhlarning tilni qabul qilish darajasi turlicha ekanini ko‘rsatadi. Shu sababli nutq jarayonida adresatning bilim darajasi, ijtimoiy tajribasi va tushunish imkoniyati asosiy omil sifatida namoyon bo‘ladi.

XULOSA

Xulosa qilib aytganda, hadislar nafaqat diniy-axloqiy manba, balki tilshunoslik nuqtai nazaridan ham muhim diskursiv matnlar hisoblanadi. Ularda nutq madaniyati semantik aniqlik, pragmatic ta’sirchanlik va sotsiolingvistik moslashuv orqali yaqqol namoyon bo‘ladi. Shuningdek, tahlil qilingan misollar hadis matnlarida nutqning axloqiy - me’yoriy tizimi shakllantirilganini ko‘rsatadi, chunki unda qo‘pol va noo‘rin leksik birliklarning inkor etilishi, ijobiy va foydali nutqning targ‘ib qilinishi hamda tinglovchiga moslashtirilgan nutq zarurligi ta’kidlanadi. Shu jihatdan hadislar nutq madaniyatining mukammal modeli sifatida semantika, pragmatika va sotsiolingvistika o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlikni namoyon etadi hamda zamonaviy lingvistik tadqiqotlar uchun muhim manba bo‘lib xizmat qiladi.

ADABIYOTLARRO‘YXATI:

1. Hadith. Encyclopaedia Britannica. URL: britannica.com
2. Hadis. Ensiklopedia Islam. URL: https://ensiklopediaislam.id/hadis
3. Rahman M. Linguistic politeness in hadith discourse // Universum: Jurnal Ilmiah Keagamaan dan Sosial. – 2021. – Vol. 15, № 2. – B. 193–210. URL: https://jurnalfuda.iainkediri.ac.id/index.php/universum/article/view/285/623
4. Jamolxonov H. Hozirgi o‘zbek adabiy tili: Darslik. – Toshkent: Talqin, 2005.
5. Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf. Ijtimoiy odoblar. – Toshkent: Hilol-Nashr, 2025.
6. Safarov Sh. Pragmalingvistika. Monografiya. – Toshkent: O‘zbekiston Milliy Ensiklopediyasi, 2008.
7. mirarab.uz
8. muslim.uz